|                                                                                                                                                                      |     |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----|
| Bo'lajak o'qituvchilarni millatlararo muloqot madaniyatini rivojlantirishga tayyorlashning diagnostik mezonlari va ko'rsatkichlari .....                             | 321 |
| <b>Atamuratov Dilshod</b>                                                                                                                                            |     |
| Концептуальные основы развития навыков академического вокального исполнительства у студентов образовательных программ по направлению "Музыкальное образование" ..... | 325 |
| <b>Ахмедова Чарос Ильхомовна</b>                                                                                                                                     |     |
| Muammoli ta'lim orqali o'quvchilarning kognitiv kompetensiyalarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari .....                                                   | 332 |
| <b>Bekchanova Sabohat Matrasulovna</b>                                                                                                                               |     |
| Ixtisoslashtirilgan va ijod maktablari direktorlari kreativ salohiyatining tarkibiy tuzilmasi va baholash mezonlari .....                                            | 338 |
| <b>G'aniyeva Zarina Itolmas qizi</b>                                                                                                                                 |     |
| Maktabgacha ta'limda inkluziv muhitni shakllantirish: mavjud muammolar va innovatsion pedagogik yechimlar .....                                                      | 342 |
| <b>Gulyamova Aziza Otabek qizi</b>                                                                                                                                   |     |
| Bo'lajak o'qituvchilarda kasbiy madaniyatshunoslik kompetensiyasini shakllantirish metodikasi .....                                                                  | 346 |
| <b>Komiljonova Mohinur Allabergan qizi</b>                                                                                                                           |     |
| Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida talabalarning global kommunikativ motivatsiyasini shakllantirish: pedagogik yondashuvlar .....                                   | 350 |
| <b>Qoravoyeva Shoir Zafarjon qizi</b>                                                                                                                                |     |
| Tafakkur muammosining pedagogik va psixologik asoslari .....                                                                                                         | 353 |
| <b>Shixova Inobat Omonovna</b>                                                                                                                                       |     |
| Integral yondashuv asosida bo'lajak musiqa o'qituvchisining kasbiy tayyorlashda xorij tajribasi .....                                                                | 358 |
| <b>Usmanova Shaxnoza Baxodirovna</b>                                                                                                                                 |     |
| Arab tilidagi akademik matnlarni o'qib tushinishda sun'iy intellektdan foydalanishning metodik imkoniyatlari .....                                                   | 363 |
| <b>Xalilova Hilola Sharopovna</b>                                                                                                                                    |     |
| Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida deontologik kompetentlikning mazmuni, tarkibiy komponentlari va funksiyalari .....                                         | 368 |
| <b>Yaqubova Donoxon Xo'janazar qizi</b>                                                                                                                              |     |
| Kognitiv yondashuv asosida sonning butun va kasr qismi qatnashgan tenglamalarni o'qitish metodikasi ...                                                              | 372 |
| <b>Boboqulova Munisa Shavkat qizi</b>                                                                                                                                |     |



# TAFAKKUR MUAMMOSINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK ASOSLARI

Shixova Inobat Omonovna

Xorazm viloyati Pedagogik Mahorat Markazi

“Aniq va tabiiy fanlar metodikasi” kafedrası v.b.dotsenti,  
psixologiya bo'yicha falsafa fanlari doktori(PhD), telefon:91-428-64-32  
inobat@gmail.com

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada tafakkur muammosining pedagogik va psixologik asoslari hamda uning ilmiy adabiyotlarda o'rganilganlik darajasi tahlil qilinadi. Tafakkurning bilish faoliyatidagi o'rni, uning asosiy xususiyatlari va fikrlash jarayonining muhim operatsiyalari - taqqoslash, umumlashtirish va mavhumlashtirishning mazmuni yoritiladi. Shuningdek, ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlardan foydalanish orqali o'quvchilarning mantiqiy va mustaqil fikrlashini rivojlantirishning pedagogik-psixologik jihatlari ko'rib chiqiladi.

**Kalit so'zlar:** mantiq, fikrlash, taqqoslash, umumlashtirish, mavhumlashtirish, tafakkur, ta'lim jarayoni, muammoli vaziyatlar, faoliyat, ong.

**Abstract:** This article examines the pedagogical and psychological foundations of thinking and the extent to which this issue has been studied in the scientific literature. It explores the role of thinking in cognitive activity, its main characteristics, and the essential cognitive operations of comparison, generalization, and abstraction. The article also considers the pedagogical and psychological aspects of developing students' logical and independent thinking through the use of problem situations in the educational process.

**Key words:** logic, thinking, comparison, generalization, abstraction, educational process, problem situations, activity, consciousness.

**Аннотация:** В статье рассматриваются педагогические и психологические основы проблемы мышления, а также степень её изученности в научной литературе. Раскрываются роль мышления в познавательной деятельности, его основные особенности и содержание важнейших мыслительных операций - сравнения, обобщения и абстрагирования. Кроме того, рассматриваются педагогико-психологические аспекты развития логического и самостоятельного мышления учащихся посредством использования проблемных ситуаций в образовательном процессе.

**Ключевые слова:** логика, мышление, сравнение, обобщение, абстрагирование, образовательный процесс, проблемные ситуации, деятельность, сознание.

## KIRISH

Ta'lim-tarbiya jarayonini zamonaviy talablar asosida tashkil etish, o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodiy yondashuvi va intellektual salohiyatini rivojlantirish pedagogika va psixologiyaning muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Insonning voqea-hodisalar o'rtasidagi sabab-oqibat bog'liqliklarini tushunishida, atrof-muhitni anglashida, muammoli vaziyatlarga muqobil yechim topishi va mustaqil xulosa chiqarishi jarayonida tafakkur alohida o'rin egallaydi. Shu boisdan, tafakkurni rivojlantirish masalasi psixologiya va pedagogika fanlarining dolzarb tadqiqot yo'nalishlaridan biri, tadqiqot obyekti sifatida namoyon bo'lmoqda.

“Tafakkur” so'zi arabcha “o'ylash”, “fikir yuritish” ma'nolarini anglatib, obyektiv borliqning tasavvur, tushuncha va muhokamadagi faol in'ikosi jarayoni, insonning fikrlash qobiliyati sifatida tushuniladi <sup>[11; 13]</sup>.

Tafakkur orqali narsa va hodisalarning muhim xususiyatlari umumlashtirilib, yangi bilim va xulosalarga kelinadi. Tafakkur jarayoni tahlil, sintez, taqqoslash, umumlashtirish, mavhumlashtirish va konkretlashtirish kabi aqliy operatsiyalar orqali amalga oshadi. Tafakkur shaxsning yosh xususiyatlari, hayotiy tajribasi, ta'lim muhiti, pedagogik ta'sirlar va individual-psixologik xususiyatlari ta'sirida rivojlanadi.

Tafakkurni rivojlantirish uchun muammoli ta'lim, mustaqil topshiriqlar, interfaol metodlar, munozara, ijodiy mashqlar va noan'anaviy usullardan samarali foydalanish muhim ahamiyatga ega. Natijada o'quvchilar, o'rganuvchilar tayyor bilimni qabul qiluvchilar emas, balki zarur bilimni izlab topuvchi, tahlil va sintez qiluvchi hamda uni amaliyotda qo'llay oluvchi shaxsga aylanadi. Shu bilan birga, o'quvchilarning individual imkoniyatlarini



hisobga olgan holda tashkil qilingan dars mashg'ulotlari, ta'lim-tarbiya jarayonlari, darsdan va sinfdan tashqari ishlar o'quvchilarning tafakkur faoliyatini yanada samarali rivojlantirish imkonini beradi.

Tafakkur muammosiga pedagogik nuqtayi nazardan qarasak, tafakkurni rivojlantirishning samarali usul va vositalarini belgilash, ta'lim mazmunini o'quvchilarning aqliy rivojlanishiga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Uning psixologik asoslarini o'rganish esa insonning fikrlash jarayonlari qanday shakllanishi, rivojlanishi va turli faoliyatlarda namoyon bo'lishini aniqlash, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini shakllantirish hamda hayotiy muammolarni mantiqiy yechish imkonini beradi.

Tafakkurning pedagogik va psixologik asoslarini chuqur o'rganish ta'lim samaradorligini oshirish, o'quvchilarning intellektual rivojlanishini ta'minlash hamda barkamol shaxsni tarbiyalashda muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

Tafakkurning pedagogik va psixologik asoslarini tafakkur tushunchasining mazmun-mohiyatini ochib berish, uning psixologik xususiyatlarini yoritish hamda pedagogik imkoniyatlarini tahlil qilish tashkil qiladi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tafakkur insonning voqelikni bilish, hodisa va jarayonlar o'rtasidagi sababiy bog'lanishlarni aniqlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish hamda yangi xulosalar chiqarish imkonini beruvchi murakkab psixik jarayondir. Tafakkur muammosi uzoq yillardan buyon falsafa, psixologiya va pedagogika fanlarining muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Mazkur masalaning nazariy asoslari xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy izlanishlarida keng tadqiq etilgan.

A.V. Petrovskiy <sup>[11; 187]</sup> tafakkurga quyidagicha ta'rif beradi: "Tafakkur - ijtimoiy-sababiy, nutq bilan chambarchas bog'liq muhim bir yangilik qidirish va ochishdan iborat psixik jarayondir, boshqacha qilib aytganda, tafakkur voqelikni analiz va sintez qilishda uni bevosita va umumlashtirib aks ettirish jarayonidir". Lekin bunda tafakkurga faqat nutq bilan bog'liq psixik jarayon deb ta'rif beriladi.

P.I. Ivanovning <sup>[11; 186]</sup> darsligida: "Tafakkur insonning shunday aqliy faoliyatidirki, bu faoliyat voqelikni eng aniq (to'g'ri), to'liq, chuqur va umumlashtirib aks ettirishiga, bilishga, insonning tag'in ham oqilona amaliy faoliyat bilan shug'ullanishiga imkon beradi", deb ta'riflanadi.

Tafakkurning psixologik mohiyatini o'rganishda A.V. Brushlinskiy, P.Ya. Galperin, L.S. Vygotskiy, S.L. Rubinshteyn, A.N. Leontyev kabi olimlarning tadqiqotlari alohida ahamiyatga ega.

L.S. Vygotskiy o'z asarlarida tafakkur va nutqning o'zaro bog'liqligini tadqiq etib, bolaning aqliy rivojlanishida ijtimoiy muhit va ta'limning rolini asoslagan hamda tafakkur ijtimoiy munosabatlar va ta'lim jarayoni ta'sirida shakllanishini ta'kidlab o'tgan.

S.L. Rubinshteyn tafakkurni insonning real borliqni bilish jarayoni sifatida talqin qilib, uni muayyan muammoni hal qilish bilan bog'laydi hamda inson fikrlash jarayonida mavjud bilimlardan foydalanish bilan bir qatorda yangi bilimlarni ham hosil qilishini ta'kidlaydi. Uning "ong va faoliyat birligi" tamoyili tafakkurning shakllanishida faoliyatning muhim o'rin tutishini ko'rsatadi.

A.N. Leontyevning faoliyat nazariyasi tafakkur muammosini pedagogik nuqtayi nazardan tushuntirish uchun muhim metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Insonning psixik jarayonlari, shu jumladan, tafakkuri faoliyat jarayonida shakllanib, o'quvchini faol fikrlashga, mustaqil izlanishga va amaliy masalalarni hal qilishga jalb etishi tafakkur rivojining muhim sharti hisoblanadi.

P.Ya. Galperin fikricha, aqliy harakatlar dastlab tashqi, amaliy faoliyat shaklida yuzaga kelib, keyinchalik ichki aqliy faoliyatga aylanishi asoslangan. Mazkur nazariya ta'lim jarayonida o'quvchilarning nazariy bilimlarni o'zlashtirishi va ulardan amaliy foydalanish jarayonini tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

J. Piage ta'limotiga asosan, bola tafakkuri oddiy amaliy harakatlardan boshlab, asta-sekin murakkab mantiqiy va abstrakt fikrlash darajasiga ko'tariladi. Bu esa ta'lim mazmunini o'quvchilarning yosh va individual-psixologik xususiyatlariga moslashtirish zarurligini ko'rsatadi.

Pedagogik tadqiqotlarda tafakkurni rivojlantirish, avvalo, muammoli ta'lim, mustaqil fikrlash, ijodiy topshiriqlar, savol-javob, munozara va tadqiqotchilik faoliyati bilan bog'lanadi.

O'zbekistonda ham tafakkur, shaxsning intellektual rivojlanishi va ta'lim jarayonining psixologik asoslari bo'yicha qator tadqiqotlar olib borilgan. Jumladan, M.G. Davletshin, E.G'. G'oziyev, M.I. Maxmutovning psixologiya va tafakkur psixologiyasiga oid ilmiy ishlari o'zbek psixologiya maktabining rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning ishlarida tafakkurning shakllanishi, uning turlari, operatsiyalari hamda inson faoliyatidagi ahamiyati keng yoritilgan. Shuningdek, o'quvchilarda mustaqil va ijodiy fikrlashni shakllantirish masalalari pedagogik-psixologik tadqiqotlarda alohida o'rin egallaydi.

Tafakkur faqatgina individual psixik jarayon emas, balki ta'lim, tarbiya, muloqot va faoliyat bilan uzviy bog'liq bo'lgan dinamik jarayon sifatida qaraladi. Uning rivojlanishida o'quvchining bilim darajasi bilan bir qatorda, muammoli vaziyatlarga duch kelishi, mustaqil qaror qabul qilishi, savol qo'yishi, taqqoslashi, tahlil qilishi va umumlashtirishi muhim ahamiyatga ega.



Tafakkurning pedagogik va psixologik asoslarini uch asosiy yo'nalishda ko'rish mumkin:

- *birinchidan*, tafakkurning psixik jarayon sifatidagi nazariy mohiyati;
- *ikkinchidan*, tafakkurning ta'lim va faoliyat jarayonida shakllanish mexanizmlari;
- *uchinchidan*, zamonaviy pedagogik texnologiyalar va muammoli ta'lim vositasida o'quvchilarning mustaqil hamda ijodiy tafakkurini rivojlantirish masalalari.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Shaxsning rivojlanishi faoliyat jarayonida amalga oshishi haqidagi psixologik-pedagogik qarashlar, ta'lim va rivojlanishning o'zaro bog'liqligi, shuningdek, tafakkurning faol va ijtimoiy xarakteri haqidagi nazariy konsepsiyalar tafakkur muammosining pedagogik va psixologik asoslarini tashkil etadi. Bunda L.S. Vygotskiyning rivojlanish va ta'lim munosabati haqidagi qarashlari, S.L. Rubinshteynning ong va faoliyat birligi tamoyili, A.N. Leontyevning faoliyat nazariyasi hamda P.Ya. Galperinning aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasi muhim nazariy asos sifatida olinadi.

Tafakkur muammosining pedagogik va psixologik asoslarini o'rganish jarayonida quyidagi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanish mumkin. Tafakkur muammosiga oid pedagogik, psixologik va ilmiy-metodik adabiyotlarni o'rganish va tahlil qilish orqali nazariy tahlil amalga oshiriladi.

Turli olimlarning tafakkur haqidagi ilmiy qarashlarini taqqoslash - qiyosiy tahlil;

- o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi fikrlash faoliyati, muammoli vaziyatlarga munosabati va mustaqil qaror qabul qilish jarayonini kuzatish - kuzatish metodi;
- o'quvchi va pedagoglarning tafakkurni rivojlantirishga oid qarashlarini aniqlash suhbat metodi;
- tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan metod va topshiriqlarning samaradorligini aniqlash - pedagogik tajriba-sinov;
- o'quvchilarning mantiqiy, tanqidiy va ijodiy tafakkur darajasini aniqlash - psixologik diagnostika;
- tafakkurning ayrim ko'rsatkichlarini miqdoriy jihatdan baholash - test metodi;
- tajriba-sinov natijalarini umumlashtirish va olingan natijalarning ishonchligini aniqlash - matematik-statistik tahlil orqali amalga oshiriladi.

Ta'lim jarayonida o'quvchilar uchun muntazam ravishda muammoli vaziyatlar yaratilsa, mustaqil va ijodiy topshiriqlardan foydalanilsa, ularning individual-psixologik xususiyatlari hisobga olinsa hamda o'quvchilar faol fikrlashga yo'naltirilsa, tafakkurning rivojlanish samaradorligi oshadi. Tafakkurning pedagogik va psixologik jihatlarini o'zaro bog'liq holda tahlil qilish, uning rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillarni aniqlash va ta'lim jarayonida samarali foydalanish mumkin bo'lgan metodik imkoniyatlarni asoslash bilan belgilanadi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Tafakkur insonning borliqni anglash, voqea-hodisalar o'rtasidagi sababiy bog'lanishlarni aniqlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va yangi xulosalarga kelish imkonini beruvchi murakkab psixik jarayondir. Tafakkur bilish jarayonlarining yuqori shakli bo'lib, u sezgi, idrok va xotira bilan uzviy aloqada rivojlanadi. Tafakkurning asosiy operatsiyalari - tahlil, sintez, taqqoslash, abstraksiyalash, konkretlashtirish va umumlashtirish - insonning muammoli vaziyatlarni hal qilishida muhim ahamiyatga ega. O'quv jarayonida ushbu operatsiyalarning muntazam qo'llanilishi o'quvchilarning mantiqiy va mustaqil fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tafakkurning rivojlanishi faqatgina tayyor bilimlarni o'zlashtirish bilan belgilanmaydi. O'quvchining mustaqil savol qo'yishi, muammoni anglashi, turli yechimlarni izlashi, ularni taqqoslashi va asoslangan xulosaga kelishi tafakkur rivojining muhim ko'rsatkichlari hisoblanib, tafakkurni psixologik jihatdan o'rganishni taqozo etadi. Tafakkur rivoji ta'limning mazmuni, metodlari va tashkil etilish shakllari bilan bevosita bog'liq bo'lib, an'anaviy ta'limda bilimlarni tayyor shaklda berish ustun bo'lsa, zamonaviy ta'limda o'quvchini faol fikrlashga undashga katta e'tibor qaratilishi uning pedagogik jihatdan o'rganilishini bildiradi.

Bunda muammoli ta'lim, interfaol metodlar, munozara, "aqliy hujum", klaster, taqqoslash, muammoli savollar va ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning tafakkur faoliyatini faollashtirishda samarali vositalar sifatida namoyon bo'ladi.

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi tomonidan yaratilgan muammoli vaziyat o'quvchida bilishga bo'lgan ehtiyojni yuzaga keltiradi va o'quvchi mavjud bilimlari asosida yangi yechimlarni izlaydi. Bu esa tafakkurning faollashishiga va rivojlanishiga olib keladi.



Tafakkur ta'lim jarayonining muhim tarkibiy qismi bo'lib, o'quvchilarning bilimlarni chuqur va ongli o'zlashtirishini ta'minlaydi. Tafakkurning rivojlanishi ta'lim va tarbiya jarayoni bilan uzviy bog'liq. Maqsadga yo'naltirilgan pedagogik ta'sir o'quvchilarning fikrlash imkoniyatlarini kengaytiradi. Muammoli vaziyatlar yaratish o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishning samarali vositalaridan biridir. Muammo yechimini izlash jarayonida tahlil, taqqoslash, umumlashtirish va xulosa chiqarish kabi tafakkur operatsiyalari faollashadi.

O'quvchilarning individual va yosh xususiyatlarini hisobga olish tafakkurni rivojlantirish samaradorligini oshiradi. Bir xil topshiriq va metodlardan barcha o'quvchilar uchun bir xil natijani kutish pedagogik jihatdan to'g'ri emas. Mustaqil va ijodiy topshiriqlar o'quvchilarning nafaqat mantiqiy, balki ijodiy tafakkurini ham rivojlantiradi. Bir masalaning bir nechta yechimini izlash o'quvchining fikrlash moslashuvchanligini oshiradi. O'qituvchining roli faqat bilim berish bilan cheklanmay, o'quvchilarni fikrlashga yo'naltirish, savol berishga undash va mustaqil xulosa chiqarishlari uchun sharoit yaratishdan iborat bo'lishi lozim.

Tafakkur rivoji tabiiy ravishda yuzaga keladigan jarayon bo'lishi bilan birga, to'g'ri tashkil etilgan ta'lim, faoliyat, muloqot va pedagogik ta'sir orqali yanada takomillashtirilishi mumkin.

Shu sababli ta'lim jarayonida o'quvchilarga tayyor bilimlarni berish bilan bir qatorda, ularni muammoni ko'ra olish, savol qo'yish, mustaqil izlanish, dalillarni tahlil qilish, turli fikrlarni taqqoslash va asoslangan xulosa chiqarishga o'rgatish zarur. Bunday yondashuv o'quvchilarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga xizmat qiladi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tafakkur atrof-muhitni, ijtimoiy hodisalarni, voqelikni bilish quroli, shuningdek, inson faoliyatini amalga oshirishning asosiy shartidir. U sezgi, idrok, tasavvurlarga qaraganda voqelikni to'la va aniq aks ettiruvchi yuksak bilish jarayonidir. Tafakkur - inson miyasining alohida funksiyasi. Tafakkur orqali shaxs voqea-hodisalarni anglaydi, ular o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini aniqlaydi, muammoli vaziyatlarni hal qiladi va mustaqil xulosalar chiqaradi [1, 299].

Tafakkurning shakllanishi va rivojlanishi shaxsning yoshi, individual-psixologik xususiyatlari, ijtimoiy muhiti, ta'lim-tarbiyasi hamda amaliy faoliyati bilan chambarchas bog'liqligini ko'rsatadi. Ayniqsa, o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda ta'lim jarayonini faqat tayyor bilimlarni yetkazishga emas, balki mustaqil fikrlash va muammoni hal qilishga yo'naltirish muhimdir.

Pedagogik nuqtayi nazardan, muammoli ta'lim, interfaol metodlar, ijodiy va mantiqiy topshiriqlar, munozara, savol-javob hamda mustaqil ta'lim faoliyati o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishning samarali vositalari hisoblanadi. Bunday metodlar o'quvchilarda tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, dalillash, xulosa chiqarish va ijodiy yondashish ko'nikmalarini shakllantiradi.

Psixologik jihatdan esa tafakkur rivojida motivatsiya, bilishga bo'lgan qiziqish, mustaqillik, diqqat, xotira va shaxsning individual imkoniyatlarini hisobga olish muhim ahamiyatga ega. Shuning uchun pedagog o'quvchining nafaqat bilim darajasini, balki uning fikrlash uslubi va psixologik xususiyatlarini ham hisobga olishi lozim.

Umuman olganda, tafakkurni rivojlantirish uzluksiz, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan pedagogik-psixologik jarayon bo'lib, uning samaradorligi o'qituvchi tomonidan yaratiladigan ta'lim muhiti va o'quvchining faol ishtirokiga bog'liq. Bunda quyidagi tamoyillarga alohida e'tibor qaratiladi:

- ta'lim jarayonida o'quvchilarning mustaqil, tanqidiy va ijodiy fikrlashini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish;
- darslarda muammoli vaziyatlar va muammoli savollardan muntazam foydalanish;
- o'quvchilarga bir masalaning bir nechta yechimini topishga imkon beradigan ijodiy va mantiqiy topshiriqlar berish;
- tahlil, taqqoslash, umumlashtirish, sintez va xulosa chiqarish kabi tafakkur operatsiyalarini rivojlantiruvchi mashqlarni dars jarayoniga tizimli ravishda kiritish;
- o'quvchilarning yosh va individual-psixologik xususiyatlarini hisobga olgan holda differensial va individual yondashuvni kuchaytirish;
- o'qituvchilar uchun tafakkurni rivojlantirishning zamonaviy pedagogik va psixologik metodlariga bag'ishlangan seminar va amaliy treninglar tashkil etish;
- ta'lim jarayonida munozara, "aqliy hujum", klaster, keys-stadi, loyiha va tadqiqotchilik metodlaridan samarali foydalanish;
- o'quvchilarning tafakkur darajasini muntazam aniqlash uchun psixologik-pedagogik diagnostika usullaridan foydalanish;



- o'quvchilarni o'z fikrini dalillar asosida ifodalash va himoya qilishga o'rgatish hamda raqamli ta'lim vositalari va interaktiv texnologiyalardan foydalanib, o'quvchilarning mantiqiy va ijodiy fikrlash faoliyatini yanada faollashtirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Tafakkurni rivojlantirish zamonaviy ta'lim, pedagogika va psixologiyaning muhim vazifalaridan biri bo'lib, o'quvchiga faqat bilim berish emas, balki bilimdan mustaqil foydalanish, muammoni aniqlash, yechim izlash va asoslangan qaror qabul qilishni o'rgatish ta'lim samaradorligining muhim ko'rsatkichidir. Shu jihatdan, pedagogik va psixologik yondashuvlarning uyg'unligi barkamol, mustaqil, oqilona fikrlaydigan va ijodiy salohiyatga ega shaxsni shakllantirishning muhim sharti hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston milliy insiklopediyasi VIII jild. - T.: Davlat ilmiy nashriyoti 2008-yil. - B. 774, 299 bet
2. Nishanova Z., Qurbonova Z., Abdiev S. Psixiadiagnostika va eksperimental psixologiya. - T.: Tafakkur bo'stoni, 2011-yil. - B. 258, 138-142-betlar.
3. Иванова А.Я.. О бучаемой' как принцип отценки умственного развития детей. - М.: И зд-во Моск. Ун-та. 1976 - 98 с
4. Тепенитсина Т.Н. Анализ ошибок при исследовании внимания методом корректурной пробы // Вопр. психологии.- 1959,- 145-153 с
5. Филимоненко Ю., Тимофеев В. Руководство к методике исследования интеллекта у детей Д.Векслера. Адаптированный вариант. СПб., 1993.-57 с.
6. Худик В.А. Психологическая диагностика детского развития: Методы исследования. - К: Оцива. 1992 -220 с
7. Аслонова Ш.И. (2020). Проблемы педагогических технологий в обучении молодёжи в высших учебных заведениях. Интернаука, (21-1), 59-60.
8. Sherzodovich A.S. (2020). The role of online teaching and innovative methods. Science and education, 1(3), 524-528.
9. Аслонов Ш.Ш. (2020). Компьютерная лингвистика и филология: проблемы и решения. Гуманитарный трактат, (84), 17-19.
10. Aslonov S., & Ruzimurodova Z. (2020). The use of acronyms and initialisms in bussines English. Студенческий вестник, (12-5), 34-35.
11. Ivanov P.I., Zufarova M.E. Umumiy psixologiya. - T.: O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti. 2015-11yil. - B 358, 186-227-betlar
12. [www.ziynet.uz](http://www.ziynet.uz)
13. [www.kitob.uz](http://www.kitob.uz)
14. [www.aim.uz](http://www.aim.uz)

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
  - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
  - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
  - 13.00.03 Maxsus pedagogika
  - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
  - 13.00.07 Ta'limda menejment
  - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
  - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
  - 07.00.00 Tarix fanlari
  - 19.00.00 Psixologiya fanlari
  - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
  - 02.00.00 Kimyo fanlari
  - 03.00.00 Biologiya fanlari
  - 09.00.00 Falsafa fanlari
  - 10.00.00 Filologiya fanlari
  - 11.00.00 Geografiya fanlari



# AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

**Mas'ul muharrir:** Ramzidin Ashurov

**Ingliz tili muharriri:** Murod Xoliyorov

**Musahhih:** Alibek Zokirov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

---

**2026. №9(1)**

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: № 136361.**

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Yunusobod tumani  
19-mavze, 17-uy.